

OMMAVIY OFERTA

("FIFA 2026" aksiyasida ishtirok etish uchun)

Toshkent shahri

« ____ » _____ 2026 yil

"FIFAxVisa Kapitalbank" aksiyasida ishtirok etish bo'yicha mazkur Ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda — "Oferta") "FIFA 2026" aksiyasini (keyingi o'rinlarda — "Aksiya") o'tkazish tartibi, shartlari, o'tkazilish joyi va muddatlarini belgilaydi. Mazkur aksiya ATB "Kapitalbank" (keyingi o'rinlarda — Bank/"Tashkilotchi") da Ustav asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv Raisi Maevskiy K.L. tamonidan, "Visa International" (keyingi o'rinlarda — "Hamkor") bilan hamkorlikda tashkil etiladi va o'tkaziladi. Aksiyaning maqsadi — Visa to'lov tizimining bank kartalaridan foydalangan holda naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirishdan iborat.

Ofertani aksept qilish Ishtirokchi tomonidan Oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilinganligini anglatadi. Ofertaning amaldagi tahriri www.kapitalbank.uz veb-saytida (keyingi o'rinlarda — "Sayt") hamda bankning mobil ilovasida (keyingi o'rinlarda — "Ilova") joylashtirilgan va foydalanish uchun mavjud.

I. OFERTA PREDMETI

1.1. Oferta ishtirok etish shartlarini, Aksiyani o'tkazish tartibi va joyini belgilaydi, shuningdek mazkur Ofertani aksept qilish holatida Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasida yuzaga keladigan boshqa huquqiy munosabatlar mazmunini ham belgilaydi.

1.2. Aksiya lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish uchun to'lov talab etilmaydi hamda Visa to'lov tizimining bank kartalaridan foydalangan holda naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

1.3. Aksiya Bank va "Visa International" to'lov tizimi tomonidan hamkorlikda o'tkaziladi, bunda Bank Ishtirokchilar bilan o'zaro hamkorlik qilish, operatsiyalarni hisobga olish va g'oliblarni aniqlash qismida Aksiya tashkilotchisi sifatida ishtirok etadi, "Visa International" esa sovrin jamg'armasini birgalikda moliyalashtirish qismida ishtirok etadi.

Aksiya ikki yo'nalishdan iborat:

- FIFA World Cup 2026™ ga sayohatlar aksiyasi (sovg'alar o'ynashi);
- ("futballar") bonus tizimi.

1.4. Aksiyaning o'tkazilish muddatlari:

1.4.1. FIFA World Cup 2026™ ga sayohatlar aksiyasining o'tkazilish davri. FIFA World Cup 2026™ ga sayohatlar aksiyasining o'tkazilish davri 2026 yil 11 fevraldan 2026 yil 4 aprelgacha (shu kun ham kiritilgan) etib belgilangan. Kvalifikatsion operatsiyalarni hisobga olish davri 2026 yil 11 fevraldan 2026 yil 2 aprelga qadar etib belgilanadi. Mazkur davr mobaynida Ishtirokchilar ushbu Ofertada nazarda tutilgan ishtirok etish shartlarini bajarib, sayohatlar bo'yicha o'tkaziladigan yutuqli o'yinlarda qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishlari mumkin. Belgilangan muddat yakunlangandan so'ng, sayohatlar o'yinlarida ishtirok etish uchun amalga oshirilgan yangi operatsiyalar hisobga olinmaydi hamda Kvalifikatsion operatsiyalar sifatida tan olinmaydi.

1.4.2. Aksiyaning bonus tizimi amal qilish davri.

Aksiyaning bonus valyutasi ("futballar") ni hisoblash va ulardan foydalanish 2026 yil 11 fevraldan boshlanadi hamda www.fifa.kapitalbank.uz do'konidagi tovarlar tugaguniga qadar yoki Tashkilotchining Aksiyaning bonus tizimi yakunlanganligi to'g'risidagi rasmiy xabari rasmiy saytida e'lon qilinguniga qadar amal qiladi. Tashkilotchi rasmiy saytida tegishli xabarnoma joylashtirish orqali Aksiyaning bonus tizimini

yakunlash huquqiga ega. Bonus tizimi amal qilishi tugagach, foydalanilmagan futbol bilet bекor qilinadi va ular kompensatsiya qilinmaydi, pul mablag'lariga almashtirilmaydi hamda boshqa sodiqlik dasturlariga o'tkazilmaydi.

1.5. Aksiya doirasida o'tkaziladigan yutuqli o'yin g'oliblari "Random.org" onlayn platformasi yoki diapazondagi tasodifiy sonlar generatsiyasi yoki ro'yxatdan tasodifiy tanlovni ta'minlovchi boshqa shunga o'xshash platformalar yordamida aniqlanadi.

1.6. O'yin natijalari haqidagi ma'lumot Tashkilotchining rasmiy saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtiriladi.

1.7. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Ishtirokchilarni Bankning rasmiy sayti yoki boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qilgan holda Aksiyaning sovrin jamg'armasini to'ldirish va/yoki Ofertada nazarda tutilgan sovrinlar ro'yxatini o'zgartirish;
- mazkur Ofertaga tegishli xabarnomani Bankning www.kapitalbank.uz rasmiy saytida yoki Bankning boshqa rasmiy kanallarida o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin e'lon qilgan holda bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish,

1.8. Bank va Aksiya Ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan taqdirda, nizo Bank joylashgan hududdagi iqtisodiy sudda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xolda ko'rib chiqiladi.

II. OFERTANI AKSEPT QILISH TARTIBI

2.1. Mazkur Ofertani aksept qilish ushbu Ofertaning 3.4-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan bajariladi.

2.1.1. Mazkur Ofertani aksept qilish Ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisno va/yoki cheklovlarisiz to'liq hamda so'zsiz qabul qilishni anglatadi va yozma kelishuv tuzish bilan teng kuchga ega hisoblanadi.

2.1.2. Mazkur Ofertani aksept qilgan holda, Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

- u mazkur Oferta shartlari bilan to'liq tanishgan, ularga rozilik bildiradi va ularga rioya etish majburiyatini oladi;

- unga Ofertaning mazmuni hamda mazkur Ofertani tuzish bilan bog'liq ehtimoliy huquqiy oqibatlar tushunarli;

- u huquqiy layoqatga va muomala layoqatiga ega hamda Tashkilotchi bilan shartnoma munosabatlariga kirishish uchun qonuniy huquqqa egaligini tasdiqlaydi.

2.2. Tashkilotchi Aksiya to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni e'lon qilish hamda Aksiya shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

2.3. Ofertani aksept qilish orqali, Ishtirokchi o'z harakatlarini ixtiyoriy ravishda, majburlovsiz, yanglishish, aldov, zo'ravonlik yoki tahdid ta'sirisiz amalga oshirayotganligini tasdiqlaydi.

III. AKSIYADA ISHTIROK ETISH QOIDALARI

3.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti hisoblangan hamda ATB "Kapitalbank" tomonidan berilgan Visa bank kartalari egalari bo'lgan fuqarolar (keyingi o'rinlarda — Ishtirokchi) ishtirok etishlari mumkin.

3.2. Ishtirokchi Ofertaning 3.1-band talablariga mos kelmagan taqdirda, Tashkilotchi uni Aksiyadan va/yoki yutuqli o'yindan chetlashtirish huquqiga ega.

3.2.1. *G'olib* sovrinni qabul qilishdan bosh tortgan taqdirda, Tashkilotchi uni ro'yxatdan chiqarish hamda qo'shimcha *g'olibni* tanlash huquqiga ega.

3.3. Visa FIFA kartalarini rasmiylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish tariflari Bankning rasmiy sayti www.kapitalbank.uz da joylashtirilgan.

3.4. "FIFA World Cup 2026™ ga sayohatlar aksiyasi" yo'nalishida ishtirok etish uchun Ishtirokchi mazkur Ofertaning 1.4-bandida ko'rsatilgan davr mobaynida amaldagi Visa Kapitalbank bank kartasi egasi bo'lishi hamda Visa Kapitalbank bank kartasi orqali har biri kamida 30 (o'ttiz) AQSh dollari miqdorida yoki operatsiya amalga oshirilgan sanadagi Bank kursi bo'yicha boshqa valyutadagi ekvivalent miqdorda tovarlar va/yoki xizmatlar uchun kamida 3 (uch) ta malakaviy to'lov operatsiyasini amalga oshirishi lozim.

3.4.1. Malakaviy operatsiyalar deb Visa Kapitalbank kartasi orqali amalga oshirilgan naqd pulsiz tovar va/yoki xizmatlar uchun to'lov operatsiyalari tan olinadi, mazkur Ofertaga muvofiq Aksiya doirasida hisobga olinmaydigan operatsiyalar bundan mustasno.

3.4.2. FIFA World Cup 2026™ dizaynidagi Visa Kapitalbank (Gold, Platinum, Infinite) kartalari egalari uchun mazkur band shartlari bajarilganda, sayohatlar bo'yicha yutuqli o'yinlarda ishtirok etish imkoniyatlari boshqa Ishtirokchilarga nisbatan ikki baravar miqdorda hisobga olinadi.

3.4.3. Malakaviy operatsiyalar Tashkilotchi tomonidan belgilanadigan hamda mazkur Ofertada ko'rsatilgan MCC-kodlar bo'yicha amalga oshirilgan taqdirda hisobga olinadi.

3.4.4. Quyidagi operatsiyalar malakaviy operatsiya sifatida **hisobga olinmaydi**:

- naqd pul yechish operatsiyalari;
- karta-kartaga o'tkazmalar (P2P o'tkazmalar);
- elektron hamyonlarga o'tkazmalar;
- depozit hisob raqamlarni to'ldirish bilan bog'liq operatsiyalar;
- bekor qilingan/qaytarilgan operatsiyalar;
- MCC 6012 (Moliyaviy muassasalar — savdo va xizmatlar) va 6211 (Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik xizmatlari) kodlari bo'yicha operatsiyalar.

3.4.5. G'alaba qozonish imkoniyatlarini sun'iy ravishda oshirish maqsadida firibgarlik yoki boshqa insofsiz harakatlarni amalga oshirgan Ishtirokchilar Aksiyadan chetlashtiriladi.

3.4.6. Bank malakaviy operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish va shubhali yoki haqqoniyligi tasdiqlanmagan operatsiyalarni Aksiya doirasidan chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.4.7. Malakaviy operatsiya amalga oshirilganidan so'ng jismoniy shaxs avtomatik ravishda Aksiya Ishtirokchisiga aylanadi. Qo'shimcha ro'yxatdan o'tish talab etilmaydi.

3.5. Tashkilotchi xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari bo'lmagan Ishtirokchilar Aksiya shartlarini bajargan taqdirda, Ofertaning 4-bo'limida nazarda tutilgan yutuqli o'yinida ishtirok etish hamda Ofertaning 3.6-bandida ko'rsatilgan bonus tizimida qatnashish huquqiga ega bo'ladilar.

Tashkilotchi xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari bo'lgan Ishtirokchilar Aksiya shartlarini bajargan taqdirda faqatgina Ofertaning 3.6-bandida nazarda tutilgan bonus tizimida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar.

3.6. Aksiyaning bonus tizimi

3.6.1. Bonus tizimida faqat 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari — O'zbekiston Respublikasi soliq rezidentlari hamda ATB “Kapitalbank” tomonidan emitent qilingan FIFA World Cup 2026™ dizaynidagi Visa Gold, Visa Platinum va/yoki Visa Infinite bank kartalari egalari ishtirok etishlari mumkin.

3.6.2. Bonus ballarini hisoblash tartibi:

- 1 (bir) AQSH dollari (USD) yoki 1 (bir) yevro (EUR) miqdoridagi tranzaksiya 1 (bir) bonus balliga tenglashtiriladi (O'zbekiston hududida tovar va xizmatlar uchun to'lov — bepul, chet elda EUR hisob raqami bo'yicha Bank tariflariga muvofiq komissiya olinadi);

- 12 200 (o'n ikki ming ikki yuz) so'm miqdoridagi tranzaksiya 1 (bir) bonus balliga tenglashtiriladi.

3.6.3. Bonus ballari operatsiya bo'yicha amalda yechib olingan summadan kelib chiqib hisoblanadi. Bonus ballarining amal qilish muddati Aksiya boshlangan sanadan boshlanadi va 1.4.2-bandga muvofiq Aksiya yakunlangunga qadar davom etadi. Aksiya yakunlangach foydalanilmagan bonus ballari bekor qilinadi.

3.6.4. Bonus ballarini ATB “Kapitalbank” ning www.fifa.kapitalbank.uz saytida joylashtirilgan tovarlarga almashtirish mumkin. Aksiya Ishtirokchisi tomonidan bonus ballarini almashtirish natijasida tanlangan tovarlar Uzum Market buyurtmalarni topshirish punktlari (PVZ) orqali olinishi mumkin. Tovarni olish O'zbekiston Respublikasi hududida mavjud bo'lgan Uzum Market topshirish punktlaridan mijoz uchun qulay bo'lgan istalgan punktda amalga oshiriladi. Tovarni rasmiylashtirish tartibi, yetkazib berish va topshirish muddatlari Uzum Market qoidalari muvofiq belgilanadi hamda tovarni olishni rasmiylashtirish jarayonida mijozga ma'lum qilinadi.

Ballarni tovarlarga almashtirish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- Ballarni tovarlarga almashtirish uchun Ishtirokchi Tashkilotchi mobil ilovasida joylashtirilgan havola orqali Tashkilotchi veb-saytiga o'tishi kerak.
- Veb-saytga o'tish mijozning ixtiyorida bo'lib, majburiy emas.
- Veb-saytga o'tganidan so'ng Ishtirokchi mavjud tovarlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Ishtirokchi o'z ballarini almashtirmoqchi bo'lgan tovarni tanlaydi.
- Almashtirishni amalga oshirish uchun Ishtirokchi tanlangan tovar uchun ma'lum miqdordagi ballarni almashtirish istagini tasdiqlashi kerak.
- Ballarni almashtirish Ishtirokchi tomonidan tasdiqlangandan so'ng avtomatik tarzda amalga oshiriladi.
- Tovarni almashtirish uchun talab qilinadigan ballar miqdori har bir tovar yonida veb-saytda ko'rsatiladi; ballar pul mablag'lariga almashtirilmaydi va faqat veb-saytda taqdim etilgan tovarlarni olish uchun ishlatilishi mumkin.
- Tashkilotchi sodiqlik dasturi shartlarini, jumladan ballarni almashtirish tartibini o'zgartirish huquqini saqlab qoladi, bu haqda Ishtirokchilar mobil ilova yoki veb-sayt orqali xabardor qilinadi.

3.6.5. Bank bonus ballarini hisoblash, hisobga olish va ulardan foydalanish bo'yicha qo'shimcha shartlarni belgilash hamda tegishli ma'lumotni rasmiy aloqa kanallari orqali e'lon qilish huquqiga ega.

3.6.6. Aksiyaning Bonus tizimi doirasida FIFA World Cup 2026™ dizayniga ega Visa Kapitalbank bank kartasi bo'yicha hisoblanadigan futbolarning maksimal miqdoriga cheklov o'rnatiladi. Bir karta bo'yicha bir kalendar oy davomida hisoblanishi mumkin bo'lgan futbolarning maksimal miqdori **2 000 (ikki ming) futbolni** tashkil etadi. Ko'rsatilgan limitga yetgandan keyin, joriy kalendar oyi davomida tegishli karta

bo'yicha futbol hisoblanmaydi. Futbolni hisoblash limitining foydalanilmagan qismi keyingi kalendar oylariga o'tkazilmaydi. Cheklov Aksiya bonus tizimida ishtirok etayotgan har bir kartaga nisbatan alohida qo'llanadi.

IV. AKSIYA SOVRIN JAMG'ARMASI

4.1. "FIFA World Cup 2026™ ga sayohatlar aksiyasi" yo'nalishi doirasida sovrin jamg'armasi shakllantiriladi, unga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi terma jamoasi ishtirokidagi FIFA 2026 jahon chempionati futbol o'yinlari uchun 11 ta chipta;

- FIFA World Cup 2026™ jahon chempionati final o'yini uchun 2 ta sayohat chiptasi.

4.2. Sovrin jamg'armasini shakllantirish, g'oliblarning aviabiletlari va o'yin davomida mehmonxonada turar joy xarajatlarini qoplash Tashkilotchi va Hamkor mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

4.3. Shu bilan birga, yutuqli o'yin g'olibi mazkur 4.1-bandda nazarda tutilgan sovrin jamg'armasidan 1 (bir) ta sovringa da'vogar bo'lish huquqiga ega.

4.4. Tashkilotchi xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari 4-bo'limda nazarda tutilgan sovrinlarga da'vogar bo'la olmaydilar.

V. SOVRINLARNI O'YIN ORQALI TAQSIMLASH VA ULARNI BERISH TARTIBI

5.1. Sovrinlar yutuqli o'yin orqali rasmiy sahifalarda jonli efirda o'tkaziladi: Instagram ijtimoiy tarmog'ida yoki Tashkilotchining rasmiy Telegram kanalida. Agar yutuqli o'yinning o'tkazilish sanasida o'zgarishlar bo'lsa, Tashkilotchi bu haqda www.kapitalbank.uz sayti yoki ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida efir boshlanishidan oldin e'lon qiladi.

5.1.1. Sovrinlar yutuqli o'yin orqali quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- Har bir malakaviy operatsiyaga noyob identifikatsiya raqami beriladi;

- G'oliblar aniqlanish 2 bosqichda amalga oshiriladi va ular bir kunda o'tkazilishi mumkin: O'zbekiston Respublikasi milliy terma jamoasi ishtirokidagi FIFA 2026 yilgi jahon chempionati futbol o'yinlari uchun 11 ta chipta va FIFA World Cup 2026™ jahon chempionati final o'yini uchrashuvlariga 2 ta o'yin chiptasi yutib olinadi;

- yutuqlar o'ynalishining birinchi bosqichi davomida yutuqli raqamlar havzasidagi umumiy identifikatsiya raqamlaridan tasodifiy sonlar generatori yordamida Aksiya davomida jami 11 ta O'zbekiston terma jamoasi o'yinlari uchun g'oliblar tanlanadi;

- yutuqlar o'ynalishining ikkinchi bosqichi davomida raqamlar havzasidagi qolgan umumiy identifikatsiya raqamlaridan tasodifiy sonlar generatori yordamida Aksiya davomida FIFA World Cup 2026™ final o'yini uchun 1 ta g'olib tanlanadi;

- Yutuqli raqamlar bilan operatsiya qilgan Ishtirokchilar g'olib deb hisoblanadi va sovrin olish huquqiga ega bo'ladi;

- Agar bir Ishtirokchi bir nechta sovrin yutib olsa, qo'shimcha sovrinlar qolgan Ishtirokchilar orasida qayta o'tkaziladi.

5.2. Aksiya doirasidagi sovrinlar yutuqli o'yinlari **2026 yil 4 aprelda** o'tkaziladi. Yutuqli o'yinning natijalari tegishli o'yinning belgilangan sanasida e'lon qilinadi. Yutuqli o'yin natijalari 3 (uch) ish kuni davomida ATB "Kapitalbank" rasmiy sayti — www.kapitalbank.uz da e'lon qilinadi.

5.3. Bank sovrinlarini topshirish. Sovrinni berish uchun Tashkilotchi g'olibdan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsini tasdiqlovchi ID-karta yoki pasport/yoki boshqa hujjatni Tashkilotchi filiallaridan birida taqdim etishni talab qilishi mumkin, buni Tashkilotchi kontakt-markazi orqali g'olibga xabar berilgandan so'ng amalga oshiradi. Agar G'olib shaxsini tasdiqlash jarayonidan bosh tortsa, Tashkilotchi sovrinni berishdan bosh tortish huquqiga ega, shu bilan birga Tashkilotchi berilmagan sovrinni keyingi yutuqli o'yinda qayta taqsimlash huquqiga ega.

5.4. Sovrinlarni topshirish barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan va Tashkilotchi bilan Ishtirokchi o'rtasida sovrin qabul qilish-topshirish akti imzolanganidan so'ng 10 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

5.5. Mazkur Aksiya doirasida sovrin(lar)ni olish bilan bog'liq (yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan) barcha tegishli soliqlar va majburiy to'lovlarni davlat byudjetiga to'lash Tashkilotchiga yuklatiladi, agar bunday soliqlar mavjud bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi va qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar sovrinlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromad solig'i yuzaga kelsa, sovrinlarni olish bilan bog'liq soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash mas'uliyati Aksiya g'oliblariga yuklatiladi. Bu holatda Bank soliq agenti sifatida harakat qiladi va qonunchilikda belgilangan hollarda g'olib tomonidan olingan sovrin daromadidan soliq summasini ushlab qolish va byudjetga o'tkazish huquqiga ega.

5.6. Sovrin(lar)ni qo'lga kiritgan Ishtirokchilar sovrinlarni naqd pulga almashtirishni talab qila olmaydi. Agar g'olib sovrinni olishdan bosh tortsa, bunday sovrin talab qilinmagan hisoblanadi.

5.6.1. Talab qilinmagan sovrinlar yoki g'oliblar tomonidan olinmagan sovrinlar Bank tomonidan o'z ixtiyori bilan ishlatilishi mumkin, jumladan boshqa Ishtirokchilar orasida qayta o'yin o'tqazilishi mumkin.

5.7. Tashkilotchi Aksiyani obektiv sabablar (texnik nosozliklar, fors-majior va h.k.) mavjud bo'lganda muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega bo'lib, bu haqdagi ma'lumotni Tashkilotchi rasmiy sayti www.kapitalbank.uz da ushbu Ofertaning amal qilishini bekor qilish (to'xtatib turish) hodisasi yuz berishidan kamida 12 soat oldin e'lon qiladi.

5.8. Tashkilotchi Aksiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumot e'lon qilish yoki Aksiya shartlarini bir tomonlama o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi; bu haqda rasmiy internet resurslar orqali o'zgartirishlar kiritilishidan kamida 5 kun oldin xabar beriladi.

5.9. Talab qilinmagan sovrinlar va g'oliblar tomonidan olinmagan sovrinlar (mazkur Ofertaning 5.6-bandi) Bank tomonidan o'z ixtiyori bilan quyidagicha ishlatilishi mumkin:

- boshqa Aksiya Ishtirokchilari orasida qayta o'ynalishi;
- Aksiyaning keyingi bosqichlaridagi sovrin jamg'armasiga kiritilishi;
- Bankning boshqa marketing tadbirlarida ishlatilishi.

5.10. Bank sovrinlarni yetkazib berishni amalga oshirmaydi va g'oliblarning sovrinlarni olish bilan bog'liq xarajatlarini, jumladan transport xarajatlarini qoplamaydi.

5.11. Ushbu bilan, Ishtirokchilar/G'oliblar ushbu Oferta shartlariga muvofiq Tashkilotchi sovg'alarni G'oliblarga topshirishini, biroq O'zbekiston milliy terma jamoasi o'yinlariga hamda 2026 yilgi futbol

bo'yicha jahon chempionati FIFA World Cup 2026™ final uchrashuviga safarlarni keyinchalik tashkil etish uchun javobgar emas ekanliklariga rozilik bildirishadi va xabardor ekanliklarini tasdiqlaydilar. Shu bilan birgalikda, Tashkilotchi g'oliblarning turistik agentliklar, viza markazi yoki xorijiy davlatlar elchixonasi bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha ham javobgar hisoblanmaydi.

VI. TOMONLARNING MAS'ULIYATI

6.1. Tomonlar mazkur Oferta shartlarini bajarilmasligi yoki noto'g'ri bajarilishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

6.2. Agar Oferta shartlarining bajarilmasligi Tashkilotchi nazorat doirasidan tashqaridagi sabablar bilan bog'liq bo'lsa, Tashkilotchi bunday holatda javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.3. Ishtirokchi taqdim etayotgan ma'lumotlarning to'g'riligiga va Oferta tomonidan belgilangan ishtirok shartlariga rioya qilinishiga javobgardir.

6.4. Aksiya o'tkazilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida yaxshi niyat va o'zaro tushunishga asoslanib muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar kelishuvga erishib bo'lmasa, nizolar sud tartibida ko'rib chiqiladi.

VII. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHGA ROZILIK

7.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni Aksiyada ishtirok etish, g'oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish va natijalar haqida xabardor qilish maqsadida qayta ishlashga rozilik bildiradi.

7.2. Ishtirokchi shuningdek, o'z ismi va tasvirini (fotosuratini) Aksiya bilan bog'liq materiallarda, jumladan Internet tarmog'ida reklama maqsadlarida qo'shimcha kelishuvsiz ishlatilishiga rozilik beradi. Tasvirning ishlatilishi va G'oliblarning reklama faoliyatida ishtiroki

Yutuqli o'yinda g'olib deb topilgan Ishtirokchi o'zining ixtiyoriy va ongli roziligini tasdiqlaydi hamda Tashkilotchi tomonidan «FIFAxVisa Kapitalbank» reklama kampaniyasi doirasida o'tkaziladigan reklama va promo-faoliyatlarda ishtirok etish majburiyatini qabul qiladi.

7.2.1. G'olib Tashkilotchi talabiga binoan yutuqli o'yin natijalari e'lon qilingandan so'ng reklama fotosessiyasida va/yoki video tasvirga olish jarayonlarida ishtirok etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Ushbu materiallar Tashkilotchi va/yoki u vakolat bergan uchinchi shaxslar tomonidan «FIFAxVisa Kapitalbank» reklama kampaniyasi doirasida ishlatilishi mumkin.

7.2.2. G'olib Tashkilotchi va/yoki u vakolat bergan uchinchi shaxslar tomonidan o'z ismi, familiyasi, tasviri, ovozi hamda o'z ishtirokidagi foto va video materiallar, jumladan fotosessiyalar, video tasvirlar, promo-tadbirlar va FIFA World Cup 2026™ jahon chempionati safarida olingan materiallar reklama, marketing va axborot maqsadlarida qo'shimcha mukofot to'lanmasdan ishlatilishiga shartsiz rozilik bildiradi.

VIII. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Oferta ATB “Kapitalbank” rasmiy resurslarida e’lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va Aksiya muddati tugaguncha yoki Tashkilotchi tomonidan bekor qilinmaguncha amal qiladi.

8.2. Oferta bilan bevosita belgilab o’tilmagan barcha masalalarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

8.3. Mazkur Oferta o‘zbek tilida e’lon qilingan.

8.4. Aksiya bo‘yicha batafsil ma’lumot bankning qisqa raqamli ishonch liniyasi **1340** yoki telefon orqali (+998 71) **200-15-15** raqamlarida olinishi mumkin.

8.5. Potensial va amaldagi Ishtirokchilarni rasmiy xabardor qilish Tashkilotchi tanlagan quyidagi kanallar orqali amalga oshiriladi:

- ATB “Kapitalbank” rasmiy veb-sayti (www.kapitalbank.uz);
- Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari va guruhlar hamda kross-platformali messengerlar;
- Visa kartalar egalari uchun SMS-xabarlar, mobil ilovadagi push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabarlar.

8.6. Mazkur Oferta to‘liq matni, barcha Ilovalar va o‘zgartirishlar bilan birga, Tashkilotchi rasmiy sayti www.kapitalbank.uz da “Aksiyalar” bo‘limida joylashtirilgan bo‘lib, barcha qiziqqan shaxslar uchun ochiq jamoat hujjati hisoblanadi.

8.7. Aksiya shartlari, g‘oliblarni aniqlash tartibi, sovrinlarni olish tartibi va boshqa savollar bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish uchun Ishtirokchilar quyidagilardan foydalanishi mumkin:

- Tashkilotchi Kontakt-markaziga yagona raqam 1340 orqali murojaat qilish;
- ATB “Kapitalbank” ning har qanday filial yoki bo‘limida konsultatsiya olish;
- Tashkilotchi rasmiy saytida mavjud aloqa formasidan savol yuborish.

8.8. Agar Tashkilotchi Aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish, uni uzaytirish yoki shartlarga sezilarli o‘zgarishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, tegishli ma’lumot Tashkilotchining rasmiy saytida “Aksiyalar” bo‘limida o‘zgarish kuchga kirishidan yoki Aksiya tugashidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin e’lon qilinadi.

8.9. Tashkilotchi Aksiya bo‘yicha belgilangan tartibda e’lon qilingan rasmiy ma’lumot bilan Ishtirokchilar tanishib chiqmaganligi yoki uchinchi shaxslardan noto‘g‘ri ma’lumot olganliklari uchun javobgar emas.

IX. TASHKILOTCHI REKVIZITLARI

ATB “Kapitalbank” Manzil: Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 7 uy

STIR: 207 127 843 MFO: 01158

Tel.: +998 78 200-15-15 E-mail: info@kapitalbank.uz

O‘zbekiston Markaziy Banki litsenziyasi №: 69, 25.12.2021 yildan